

QARAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA NISHONLANGAN IPAK QURTI ZOTLARINI PARVARISHLASHNING REPRODUKTIV KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1104>

Raysa Mambetova

QAXAI magistranti

Otabek Oripov

IITI tadqiqotchisi, q.x.f.f.d. (PhD), dotsent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining turli iqlim sharoitida jinsi bo‘yicha nishonlangan tut ipak qurti zot va duragaylarini parvarishlashning reproduktiv, biologik va texnologik ko‘rsatkichlarga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqotlarda harorat, havo namligi, ozuqa sifati va parvarishlash sharoitlarining tuxum jonlanishi, qurt hayotchanligi, pila mahsuldorligi hamda ipakchanlik darajasiga ta’siri baholandi. Ilmiy natijalarga ko‘ra, mahalliy iqlimga moslashgan nishonlangan duragaylar yuqori hayotchanlik va reproduktiv ko‘rsatkichlarni namoyon etdi.

Kalit so‘zlar: ipak qurti urug‘i, inkubatsiya, harorat, namlik, yorug‘lik, tut bargi, nishonlangan ipak qurti, duragay, qurtxona, dasta, g‘umbak, kapalak, navli pilla, ipak tolasi.

KIRISH

Hozirgi kunda jahon bozorida tabiiy ipak va ipak mahsulotlariga bo‘lgan talab tobora oshib bormoqda. Bu esa pillachilik sohasida yuqori mahsuldor va tashqi muhit omillariga chidamli tut ipak qurti zotlarini yaratishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda pillachilik sohasini rivojlantirish, mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan zot va duragaylarni yaratish hamda sifatli pilla yetishtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-fevraldagi PQ–73-son qarori hamda 2023-yil 1-iyundagi PF–85-son Farmonida pillachilik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, seleksiya ishlarini takomillashtirish va intensiv texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining keskin kontinental iqlimi, yuqori harorat va havo namligining pastligi ayrim ipak qurti duragaylarining hayotchanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli mahalliy sharoitga moslashuvchan, yuqori reproduktiv xususiyatlarga ega nishonlangan ipak qurti zotlarini tanlash dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi [1,2].

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari tomonidan ipak qurtini parvarishlash texnologiyasi, tashqi muhit omillarining ta’siri, ozuqa sifati va qurt boqish agrotexnikasi bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Ye.Mixaylov, N.Baxovuddinov, B.Parpiyev, N.A.Axmedov va Sh.R.Umarovlar tomonidan ipak qurti biologiyasi va mahsuldorligiga oid ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Shuningdek, xorij olimlari M.Ye.Braslavskiy, G.Bekirov, N.Baramidze, F.Pessio va boshqalar tomonidan turli iqlim mintaqalarida ipak qurtining moslashuvchanligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan [5,6,7].

Tadqiqot usullari va materiallar Tadqiqot ishlari 2024–2025-yillarda Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Ipakchilik” kafedrası laboratoriyasi hamda Taxiatoş tumanidagi ishlab chiqarish sharoitlarida amalga oshirildi.

Tajribalarda O'zbekiston ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti "Ipak qurti seleksiyasi" laboratoriyasidan olingan jinsi bo'yicha nishonlangan C-5, C-10, C-12, C-13 va C-14 duragaylari hamda nazorat sifatida "Ipakchi-1" zoti qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ko'rsatkichlar baholandi:

normal tuxumlar soni;

tuxum massasi;

bitta tuxum vazni;

tuxum jonlanishi;

qurt hayotchanligi;

pilla massasi;

ipakchanlik.

qurtxonalarda harorat va havo nisbiy namligi muntazam nazorat qilindi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Tut ipak qurti rivojlanishining barcha bosqichlarida (tuxum, lichinka, g'umbak, kapalak) qat'iy tanlash usuli amalga oshirilsa, ko'rsatkichlar yaxshi tomonga o'zgarishi mumkin. Masalan, tuxumlar estivatsiyasi davrida, quymalarni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha eng yaxshilarini tanlash ishlari o'tkazildi: quymadagi normal tuxumlar miqdori bo'yicha, quyma massasi, bitta tuxum massasi va jinslarni 1:1 nisbati bo'yicha. Tadqiq etilgan zotlarning reproduktiv ko'rsatkichlari 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval. O'rganilayotgan zotlarning reproduktiv ko'rsatkichlari (2025)

Zotlar	Normal tuxumlar soni (dona)	Normal tuxumlar massasi (mg)	Bitta tuxum vazni (mg)
C-5	540	290	0,538
C-10	492	246	0,501
C-12	624	324	0,520
C-13	545	298	0,550
C-14	544	298	0,548
Ipakchi-1 (nazorat)	654	354	0,542

Tadqiqot natijalariga ko'ra, C-12 duragayi normal tuxumlar soni va massasi bo'yicha yuqori natija ko'rsatdi. Nazorat varianti hisoblangan "Ipakchi-1" zoti eng yuqori reproduktiv ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

Nishonlangan duragaylar ichida C-10 variantida tuxumlar soni va massasi nisbatan past bo'lganligi kuzatildi. Biroq umumiy baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, jinsi bo'yicha nishonlangan duragaylar reproduktiv xususiyatlari jihatidan nazorat variantiga yaqin ko'rsatkichlarni namoyon etdi.

Tadqiqotlar davomida harorat va havo namligining qurtlar hayotchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Qurtxonalarda optimal harorat va namlik saqlangan variantlarda qurtlarning o'sishi va rivojlanishi yaxshi kechdi.

Yuqori harorat va past namlik kuzatilgan holatlarda esa qurtlarning oziqlanish faolligi pasaydi va ayrim hollarda bakteriya hamda zamburug' kasalliklari qayd etildi.

Qoraqalpog'istonning keskin iqlim sharoitida mahalliy sharoitga moslashgan duragaylar yuqori hayotchanlikni saqlab qoldi. Tajriba natijalariga ko'ra, nishonlangan tut ipak qurtlarining

hayotchanligi 94,6–96,0 %, pilla massasi 1,46–1,55 g, ipakchanlik darajasi esa 21,0–22,6 % ni tashkil qildi.

XULOSA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqlim sharoitida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

jinsi bo‘yicha nishonlangan tut ipak qurti duragaylari mahalliy iqlimga yaxshi moslashishi aniqlandi;

harorat va havo namligi reproduktiv hamda biologik ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;
C-12 duragayi yuqori reproduktiv ko‘rsatkichlari bilan ajralib turdi;
optimal parvarishlash sharoitida yuqori hayotchanlik va sifatli pilla olish mumkin;
kelgusida ushbu duragaylardan seleksiya ishlarida samarali foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-fevraldagi “Ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-73-sonli qarori. – Toshkent, 2023. 1-4 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Pillachilik sohasida kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-85-sonli Farmoni. – Toshkent, 2023. 1-4 b.
3. Ahmedov N., Murodov S. Ipak qurti ekologiyasi va boqish agrotexnikasi. // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2004. 54-55-b.
4. Larkina Ye.A., Gaykalova N.V., Nodiraliyeva N., Yakubdjanov B. Tolimanova F. Geneticheski modifitsirovannyye porody UzNIISH, soderzhashiesya v mirovoy kolleksii tutovogo shelkopryada. //Sbornik trudov AGU №9, 2006. -S.43-46.
5. Larkina Ye.A., Yakubov A.B. Kombinatsionnaya sennost inbrednykh liniy tutovogo shelkopryada. //Uzbekskiy biologicheskiy jurnal №1. Fan 2011. – S.50-60.
6. Larkina Ye.A., Yakubov A.B., Daniyarov U.T. Rezultaty izucheniya geneticheskoy prirody dvigatelnoy aktivnosti tutovogo shelkopryada. //“Uzbekskiy biologicheskiy jurnal” 2012. №6. –S.63.
7. Larkina Ye.A., Yakubov A.B., Daniyarov U.T. Geneticheskiy fond mirovoy kolleksii tutovogo shelkopryada Uzbekistana. Katalog. //Tashkent, . –S.4-66.